



## BOLALARNING OILADAGI RUHIY ZO'RAVONLIKDAN HUQUQIY HIMOYA QILISHNING AYRIM MASALALARI

U.M.Mahmudxodjayeva

Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi kafedrası  
dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

91/140-93-57

[musanifa-88@mail.ru](mailto:musanifa-88@mail.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13374097>

### ARTICLE INFO

Received: 14<sup>th</sup> August 2024

Accepted: 15<sup>th</sup> August 2024

Published: 18<sup>th</sup> August 2024

### KEYWORDS

### ABSTRACT

*Dunyoning zamonaviy manzarasi ilgari mavjud bo'lgan vaziyatdan tubdan farq qilmoqda. Jamiyatda oilaviy zo'ravonlik holati bo'yicha ayniqsa bolalarga nisbatan kattalar tomonidan sodir etilayotgan zo'ravonlikning turlari va soni ortib borayotganligi barchaga ma'lum. 2023 yil 10 oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tashabbusi bilan o'tkazilgan konfrensiyada bolalar huquqlari himoyasini mustahkamlash va ularni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish masalalari muhokama qilindi.*

Konfrensiyada ta'kidlanishicha har yili dunyo bo'ylab 1 milliarddan ortiq bola jismoniy, hissiy yoki jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'ladi. Multiindikator klaster kuzatuviga ko'ra O'zbekistonda 1 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 3 nafar boladan 2 nafari, ya'ni 62 foizi zo'ravonlik bilan tarbiyalash usullarini boshdan kechirgan. 15-19 yoshli qizlarning 33 foizi er o'z xotinini kaltaklashga haqli deb hisoblaydi<sup>1</sup>. Gumanitar fanlar sohasidagi mutaxassislar bitta savolni berishadi: bunday vaziyatning paydo bo'lishining sabablari va harakatlantiruvchi mexanizmlari nimada? Masalan, L. Berkoves. ijtimoiy birlik ichidagi axloqiy va axloqiy qadriyatlar darajasi, shuningdek, oila ichidagi ustuvorlik uchun doimiy kurash o'rganilayotgan hodisaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaydi<sup>2</sup>.

Shuni hisobga olish kerakki, ruhiy zo'ravonlikning har bir ko'rinishi to'g'ridan-to'g'ri jinoyat sifatida baholanmaydi. Masalan: janjal paytidagi bir martalik og'zaki haqoratni hissiy zo'ravonlik namunasi sifatida, jinoiy harakat sifatida tasniflash mumkin emas. Ushbu hodisa tizimli ravishda o'zini namoyon qilishi kerak, jabrlanuvchining psixologik va hissiy barqarorligiga sezilarli darajada ta'sir qiladi va buzadi, u ta'sir ko'rsatadigan shaxsga to'liq bog'liq bo'ladi. Shu boisdan ham zamonaviy jamiyatda ruhiy zo'ravonlik muammosini hal qilish eng dolzarb va zarur vazifalardan biri.

Bolalarga nisbatan sodir etiladigan zo'ravonlik turlari bo'yicha MDH davlatlarida xususan yevropa mamlakatlarida ham tadqiqotlar o'tkazilib, zo'ravonlikning tarqalish qamrovi kengligi to'g'risida xulosalar berilgan. Shu tadqiqotlar asosida bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalani oldini olish masalalari bo'yicha xalqaro standartlar va uslubiy tavsiyalar, maktabda va oiladagi shafqatsiz muomalani oldini olish bo'yicha dasturlari ishlab chiqildi va tatbiq etildi.

Adabiyotlarda ta'kidlanganidek, ruhiy azoblash ham jismoniy azoblash singari inson

<sup>1</sup> <https://senat.uz/oz/events/post-1411>

<sup>2</sup> Берковец Л. Агрессия: причины, последствия, контроль. СПб.: прайм-ЕВРОЗНАК., 2002. С. 512

organizmini ishdan chiqishigacha olib kelishi mumkin. Chunki, bu azob insonning eng kerakli bo'lgan organizmi, ya'ni uning ruhiy holatini buzulishiga olib keladi<sup>3</sup>.

Tahlillarga qaraganda, shaxsdagi ruhiy zo'riqish holatlari ko'pincha insonning o'z joniga qasd qilishiga sabab bo'ladi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda bir yilda dunyoda 1 mln. 100 mingga yaqin odam o'z joniga qasd qiladi<sup>4</sup>. Bolalikdagi tazyiq va zo'ravonlik ko'pincha shaxsiyatning og'ir buzilishlarining paydo bo'lishi va kattalarda ruhiy kasalliklarning rivojlanishi uchun xavf omillari bo'lib xizmat qiladi<sup>5</sup>. Agar bola oilada zo'ravonlikni boshdan kechirgan bo'lsa, unda "nuqsonlar kompleksi" rivojlanishi mumkin. U yolg'izlikka, xayolparastlikka, shuningdek, tajovuzkorlik va g'ayrioddiy xatti-harakatlarga moyil. Shu bilan birga, tajovuz boshqalarga ham, o'ziga ham qarshi qaratilgan bo'lishi mumkin<sup>6</sup>. Bolalikda sodir bo'lgan jismoniy, jinsiy va psixologik (yoki hissiy) zo'ravonlik tufayli bir nechta muhim uzoq muddatli travmatik oqibatlar bo'lishi mumkin. Ushbu travmatik oqibatlar kattalar hayoti davomida affektiv buzilishlar, travmadan keyingi stress buzilishlari, giyohvandlik xatti-harakatlari, ovqatlanish buzilishi va boshqalar shaklida namoyon bo'lishi mumkin<sup>7</sup>.

Selmani-Bakiuning fikricha, "oila har qanday jamiyatning eng muhim ustunlaridan biridir. Har bir bola o'z g'amxo'rliqi va funksional va sog'lom oilada o'sishi, hissiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish, sog'lom va hurmatli shaxs bo'lib ulg'ayish huquqiga ega. Oilaning huquq va majburiyatlari bolaning ushbu huquqidan, demak, bolaning ota-onasi bilan yashash huquqidan va ota-ona huquqlari ota-onaning o'z majburiyatlarini mas'uliyat bilan amalga oshirish orqali farzandi uchun munosib va sog'lom oilaviy hayotni ta'minlash majburiyatidan kelib chiqadi"<sup>8</sup>. Oilaning ichki dinamikasi bolaning keyingi rivojlanishiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.<sup>9</sup> Zamonaviy jamiyatda zo'ravonlik faqat ijtimoiy nochor oilalarda sodir bo'ladi, degan tushuncha mavjud. Biroq, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki oilaviy zo'ravonlik madaniy, diniy, ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy jihatlaridan qat'i nazar, jamiyatning barcha sohalarida sodir bo'ladi. Zo'ravonlik buzilishlarni keltirib chiqaradi va bolaning shaxsi rivojlanishining barcha darajalariga, uning hissiy va kognitiv sohalariga, shuningdek, xatti-harakatlariga ta'sir qiladi. Oilaviy hayotning salbiy jihatlaridan biri bu oiladagi mojaroga bolalarning guvohi yoki uning qurboni bo'lishidir<sup>10</sup>.

<sup>3</sup>Сикорский А.И. Физиология нравственных страданий // Русская расовая теория. –М., 2004. –С. 496.

<sup>4</sup> [http:// lossof soul. Com/DEATH/cuicide/statistic. Htm](http://lossof soul. Com/DEATH/cuicide/statistic. Htm); Хакимова И.М. Девиант хулқ атвор психологияси: Ўқув қўлланма. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси. –2013. –Б. 84.

<sup>5</sup> VU, NL, JOURILES, EN, MCDONALD, R, & ROSENFELD, D (2016). "Children's exposure to intimate partner violence: A meta-analysis of longitudinal associations with child adjustment problems", in: Clinical psychology review, 46, pp.25-33

<sup>6</sup> MARGOLIN, G, & VICKERMAN, KA (2011). "Posttraumatic stress in children and adolescents exposed to family violence: I. Overview and issues", in: Couple and Family Psychology: Research and Practice, 1(S), pp.63-73

<sup>7</sup>SCHWERDTFEGER, KL, LARZELERE, RE, WERNER, D, PETERS, C, & OLIVER, M (2013). "Intergenerational transmission of trauma: The mediating role of parenting styles on toddlers' DSM-related symptoms", in: Journal of Aggression, Maltreatment & Trauma, 22(2), pp.211-229.

<sup>8</sup> Selmani-Bakiu, A. (2016). Deprivation of the parental rights according to the Macedonian legislation. Annual of the institute of sociological, political and juridical research, Volume. XL, no.2. Institute of sociological, political and juridical research, St.Cyril and Methodius University, Skopje, Republic of Macedonia, p.80

<sup>9</sup> AL GHARAIBEH, F, & GIBSON, L (2019). "Care and rehabilitation services to child victims of abuse in the United Arab Emirates: Examples of innovation", in: Children and Youth Services Review, 101, pp.87-98. AL, HH, AL, MH,

<sup>10</sup> KOWASH, M, KHAMIS, AH, WELBURY, R, & HUSSEIN, I (2018). "Assessment of the knowledge of United Arab Emirates dentists of Child Maltreatment, protection and safeguarding", in: European journal of paediatric dentistry, 19(2), pp.105-118

Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, oiladagi zo'ravonlik bolalar duchor bo'lishi mumkin bo'lgan eng halokatli zo'ravonlikdir<sup>11</sup>. Bolalar har doim zo'ravonlik va zo'ravonlik qurboni bo'lmaydi. onasiga, oilaning kichik a'zolariga nisbatan zo'ravonlik guvohi bo'ladi. Bunday sharoitda psixologik travma bolaning o'zi zo'ravonlik ob'ektiga aylanganidan ko'ra kuchliroq bo'lishi mumkin<sup>12</sup>. Oiladagi zo'ravonlik travmatik hodisami yoki yo'qmi, aniq emas, chunki bolalarga nisbatan zo'ravonlik va oiladagi zo'ravonlikni qamrab oluvchi turli xil voqealar mavjud. Oiladagi zo'ravonlik kamida bir oila a'zosining jabrlanuvchi, ikkinchisi jinoyatchi sifatidagi jismoniy yoki hissiy tajovuzni o'z ichiga oladi<sup>13</sup>.

Tadqiqotchilar oiladagi zo'ravonliklar ruhiy hukmronlik ta'siri ostida sodir etilishini va ularga xos bo'lgan xususiyatlarni asoslashga harakat qilishgan. Zo'ravonlik shaxsning ruhiyatiga turli usullar bilan ta'sir ko'rsatish, ruhiy zo'riqishni keltirib chiqarib shaxsning sha'ni, qadr-qimmatini va erkinligini cheklashga qaratilgan xatti-harakatlarni sodir etishdir.<sup>14</sup>

Ruhiy zo'ravonlik ko'pincha tahdid qilish, haqoratlash, kamsitish, zulm qilish shaklida namoyon bo'lib, oilada voyaga yetmanganlarning ruhiy salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi qonunga xilof hatti-xarakatlar sodir etishda namoyon bo'ladi.<sup>15</sup>

Fikrimizcha, oilada bolalarga nisbatan ruhiy zo'ravonlik sodir qilinganida kattalar uning ruhiyatiga qattiq ta'sir etishning salbiy oqibatlarini anglab yetishmaydi. Vaholanki, oilada arzimagan turli bahonalar bilan kattalarning bolalar oldida nizoli holatlarni keltirib chiqarishi ularning oilaviy-maishiy zo'ravonlikdan jabrlanishi ehtimolini kuchaytiradi.

Shu o'rinda keltirib o'tish joizki Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish Respublika markazining xududiy bo'limlariga 2021, 2022 yillar hamda 2023 yilning 9 oyi davomida bolalarning ruxiy tazyiq va zo'ravonliklariga oid murojaatlari yuzasidan statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratsak ruhiy zo'ravonlikning bolalarga nisbatan sodir etilish soni ortib borayotganligini ko'rish mumkin.

INNOVATIVE  
ACADEMY

<sup>11</sup> CHRISTIAN, CW AND COMMITTEE ON CHILD ABUSE AND NEGLECT (2015). "The evaluation of suspected child physical abuse", in: Pediatrics, 135(5), pp.e1337-e1354..

<sup>12</sup> WIDOM, CS, & WILSON, HW (2015). "Intergenerational transmission of violence", in: Violence and mental health, pp.27-45

<sup>13</sup> COOK, A, SPINAZZOLA, J, FORD, J, LANKTREE, C, BLAUSTEIN, M, CLOITRE, M & MALLAH, K (2017). "Complex trauma in children and adolescents", in: Psychiatric annals, 35(5), pp.390-398

<sup>14</sup> Гребёнкин Ф.Б. Уголовно-правовое значение психологического насилия в преступлениях против собственности: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. –М., 2004. –С. 8.

<sup>15</sup> Колмакова О.С. Преступления, посягающие на права ребенка в сфере семейных отношений: автореф. дисс. кан. юрид. наук. –М., 2015. –С. 8.; Kempe, C.H., 1962 TheBattredChildSyndrome. JournaloftheAmericalAssocitation (July) Pp. 107-112; Мэкс А.М. Социальные условия насилия в семейном поведении (анализ насилия в америкаской семье): Автореф. дис.социологических наук. –М., 2003. –С. 3.



Mazkur hatti-harakatlar orqali bolalarni tarbiyalash jarayonida zo‘ravonlikni «urf-odatga asoslangan» odat normalari yoki «tarbiya» berish usuli deb qarash insonni xo‘rlovchi va kamsituvchi muomala jarayoni hisoblanib, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortilishiga olib keladi. Ruhiy zo‘rlik ishlatish deganda jabrlanuvchiga jismoniy zo‘rlik ishlatish, uning mol-mulkini nobud qilish, jabrlanuvchi sir saqlamoqchi bo‘lgan ma‘lumotlarni oshkor etishi bilan tahdid qilish va boshqalarni tushunish lozim<sup>16</sup>.

Tadqiqotlarda ta‘kidlanganidek, ruhiy zo‘rlik jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy zo‘rlik ishlatish, mol-mulkini nobud qilish yoki zarar yetkazish va jabrlanuvchi sir saqlanishini istagan ma‘lumotlarni oshkor etish va qo‘rqitish shaklida sodir etiladi<sup>17</sup>.

Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, ruhiy zo‘ravonlik asosan quyidagi ko‘rinishlarda bo‘ladi:

- a) shaxsning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitish;
- b) shaxsning ruxiyatga ta‘sir etish;
- v) haqorat yoki tuhmat qilish;
- g) doimiy tanqid qilish, qo‘rqitish;
- d) qarindosh urug‘lar orasida sharmanda qilish va h.k.

Bolalarning oiladagi ruhiy zo‘ravonlikka yuqorida berilgan ta‘riflardan kelib chiqib uning quyidagi belgilari mavjud deyish mumkin:

- a) ruhiy tazyiq har doim insonga qarshi qaratilgan bo‘ladi;
- b) ruhiy tazyiq insonga, uning ixtiyoriga zid ravishda sodir etiladi;
- v) ruhiy tazyiq o‘zganing ruhiyatini ezish, qiynash orqali uning sog‘lig‘iga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, bolaga nisbatan ruhiy zo‘ravonlik ko‘p hollarda qo‘rqitish (tazyiq o‘tkazish, qiynash, jabr-zulm qilish, qo‘rqitish, o‘ziga qaram qilish) shaklida sodir etiladi. Ruhiy zo‘ravonlik shaxsning «ixtiyoriga zid» harakatlarni amalga oshirish yoki «tazyiq o‘tkazish» maqsadlarida sodir etilishi mumkin. Oiladagi zo‘ravonliklarning ko‘p qismi ruhiy\*

<sup>16</sup>Мусаев А.М. Хаётга қарши жиноятлар: назария ва амалиёт муаммолари. –Т., 2011. –Б.167.

<sup>17</sup>Тахиров Ф. Айрим хорижий мамлакатларда жинсий жиноятлар учун жавобгарлик / Масъул муҳаррир ю.ф.д., проф. М.Х.Рустамбоев. –Т., 2009. –Б. 95–96.

\*Изоҳ: Оилада содир этиладиган зўравонликлар оқибатида шахс руҳиятига (психик) таъсир кўрсатиш, кўрkitиш бўйсундириш, мажбурлаш, хўрлаш, жабр-зулм қилиш, зўравонлик қилиш, сирини фош этишни айтиб кўрkitиш, уйдан ҳайдаб юборишга ҳаракат қилиш, болаларни қалтақлаб аламини улардан олиш, ожиз ахволда қолдириш ёхуд ўзига бўйсундириш шаклларида намоён бўлади.

(psixologik) zo'raonlikni tashkil etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda bolalarni himoya qilish va zo'raonlikning barcha turlaridan ularni himoya qilish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentitashabbusi bilan 2018 yil 2 iyulda ishlab chiqilgan "Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi davlat dasturi dastlabki qadamlardan bo'ldi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 fevraldagi "Etim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4185-son qarori, 2019 yil 22 apreldagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-son qarorlari shular jumlasidandir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yilning 21 oktyabridagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4850-sonli va 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmonlarini misol keltirish mumkin.

O'zbekiston 1992 yili Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga qo'shilishi bilan bola huquqlarini har tomonlama himoyalash, o'sib kelayotgan yosh-avlodmanfaatlarini ta'minlashga o'zining tarafdor ekanini namoyish qildi. O'zbekiston qonun hujjatlarini BMTning bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi va unga fakultativ protokollarga muvofiqlashtirishga intilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida bolaning erkinligi va shaxsiy daxlsizligining kafolatlari, bolaning himoya qilinishga bo'lgan huquqlarining kafolatlari, bolani noqonuniy ko'chirishdan himoyalashga bo'lgan huquqlarini kafolatlari, bolaning o'z fikrini ifodalash huquqini kafolatlari ma'lum qilingan. Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining yo'nalishlaridan biri: bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash; bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish; bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik; bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksida bolalarni har xil turdagi tajovuzdan himoyalovchi bir necha moddalar kiritilgan. Chunonchi kodeksning 67-moddasida bolaning himoyalashga bo'lgan huquqi mavjudligi ko'rsatilgan. Bola o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega. Bola ota-onalari (ularni o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan suiiste'mollikdan himoyalash huquqiga ega. Bolaning huquqi va qonuniy manfaatlari buzilganida, shu jumladan, ota-onalar (ulardan biri) tomonidan bolani tarbiyalash, ta'lim berish bo'yicha majburiyatlari munosib darajada bajarilmaganida yoxud ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganda bola o'z huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so'rab, vasiylik va homiylik organiga, o'n to'rt yoshga to'lganidan keyin esa, mustaqil ravishda sudga murojaat qilish huquqiga ega. Bolaning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'ilganligidan, uning huquq va qonuniy manfaatlari buzilganligidan xabardor bo'lgan shaxslar bu haqda bola ayni paytda yashab turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga ma'lum qilishi shart. Shunday ma'lumotlarni olgach, vasiylik va homiylik organi bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan zarur choralar ko'rishi shart. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida: bolaning o'z fikrini ifodalash huquqi (68-modda); ota-onaning bolalarga ta'lim-tarbiya berishga oid huquq va majburiyatlari (73-modda); bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ota-onaning huquq va majburiyatlari (74-modda) va boshqa moddalar ham yozib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 22 sentyabrdagi 269-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Nizomida zo'raonlik va beparvo muomalaga duchor bo'lgan bolalarga nisbatan vasiylik va homiylik organlarining quyida ko'rsatilgan vakolatlari ko'rsatilgan:

- bolaning hayotiga yoki sog'lig'iga bevosita tahdid paydo bo'lgan hollarda uni ota-onasidan yoxud ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan olib qo'yish choralarini ko'radilar;
  - ota-onalar va bolalar o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'lgan hollarda bolalarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish uchun vakil etib tayinlanadilar;
  - belgilangan tartibda ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risida da'vo taqdim etadilar, sudlarda ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ularning huquqini cheklash to'g'risida, shuningdek, ota-onalik huquqlarini tiklash to'g'risidagi ishlar ko'rib chiqilayotganda ishtirok etadilar.
  - bola olib qo'yilganda vasiylik va homiylik organi tezda prokurorni xabardor qilishi, bolani vaqtincha muayyan yerga joylashtirishi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolani olib qo'yish haqidagi dalolatnomasi chiqarilgandan keyin yetti kun mobaynida ota-onani ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ularning ota-onalik huquqlarini cheklash haqida sudga da'vo bilan murojaat etishi shart;
  - bolani olib qo'yish va uni boshqa shaxsga (shaxslarga) berish bilan bog'liq ishlar bo'yicha sudning qarorlarini majburiy tartibda ijro etish vasiylik va homiylik organi va bola tarbiyalashga berilayotgan shaxs (shaxslar)ning majburiy ishtirokida, zarur hollarda esa — ichki ishlar organi vakili ishtirokida amalga oshirilishi lozim.
- Hozirgi vaqtda oiladagi zo'ravonlik masalasini oldini olish va himoya qilishni tartibga soluvchi qonunni ishlab chiqish haqida gap ketmoqda. Fikrimizcha oiladagi zo'ravonlik masalasini tartibga soluvchi qonun doirasida bolalarga nisbatan sodir etilayotgan zo'ravonliklarni farqli jihatlarini inobatga olgan holda bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikni oldini olish va ularni himoya qilish to'g'risida qonun qabul qilish maqsadga muvofiq sanaladi. O'z navbatida, biz ruhiy zo'ravonlik kabi harakatni aniq tavsifini ishlab chiqish va tegishli qonun xujjatlariga tatbiq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

INNOVATIVE  
ACADEMY